

CHEVARLIK TERMINLARINI TARJIMA QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, TARJIMA USULLARI VA MUAMMOLARI

Mirzayeva Gulasal Ergashovna

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti "Xorijiy til va adabiyoti"

kafedrası o'qituvchisi

E-mail: mirzaevagulasal3@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada chevarlik terminlarini tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlari, tarjima usullari va yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi. Chevarlik sohasidagi texnik va madaniy terminlarni to'g'ri tarjima qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri tarjima, transliteratsiya, uning o'qilishi va tushuntirish kabi usullar yoritilgan. Shu bilan birgalikda, madaniy tafovutlar, texnik terminlarning mahalliy ekvivalentlari yo'qligi kabi muammolar ko'rib chiqilib, sifatli tarjima qilish uchun tavsiyalar berilgan. Maqola tarjimashunoslik va chevarchilik sohasidagi mutaxassislar uchun foydalidir. Maqola oxirida sifatli va to'g'ri tarjima qilish uchun atamalar lug'atini yaratish, bo'yicha tavsiyalar beriladi. Ushbu maqola chevarchilik va tarjimashunoslik sohalarida tadqiqot olib borayotganlar hamda tarjima faoliyati bilan shug'ullanayotgan mutaxassislar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: chevarchilik, mato, tikuvchilik, tikuv mashinasi, asbob-uskunalar, termin, atama, tikuv choklari.

ОСОБЕННОСТИ, МЕТОДЫ ПЕРЕВОДА И ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕРМИНОВ

Мирзаева Гуласал Эргашовна

Институт предпринимательства и педагогики Денова «Иностранный язык и литература»

Преподаватель кафедры

Электронная почта: mirzaevagulasal3@gmail.com

Аннотация: В статье анализируются особенности перевода шевальских терминов, способы перевода и возникающие проблемы. Охватываются такие методы, как прямой перевод, транслитерация, чтение и объяснение технических и культурных терминов в области искусства. При этом рассматриваются такие проблемы, как культурные различия, отсутствие местных эквивалентов технических терминов, и даются рекомендации по качественному переводу. Статья полезна специалистам в области переводоведения и искусствоведения. В конце статьи даны рекомендации по созданию словаря терминов для качественного и правильного перевода. Данная статья может быть полезна тем, кто проводит исследования в области искусствоведения и переводоведения, а также специалистам, занимающимся переводческой деятельностью.

Ключевые слова: рукоделие, ткань, шитье, швейная машина, оборудование, срок, срок, швейные швы.

SPECIFIC CHARACTERISTICS, TRANSLATION METHODS AND PROBLEMS OF THE TRANSLATION OF ARTISTIC TERMS

Mirzayeva Gulasal Ergashovna

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy "Foreign Language and Literature"

Department teacher

E-mail: mirzaevagulasal3@gmail.com

Abstract: *The article analyzes the specific features of the translation of cheval terms, the methods of translation and the problems that arise. Methods such as direct translation, transliteration, reading and explanation of the technical and cultural terms in the field of art are covered. At the same time, problems such as cultural differences, lack of local equivalents of technical terms are considered, and recommendations for quality translation are given. The article is useful for specialists in the field of translation studies and art. At the end of the article, there are recommendations for creating a dictionary of terms for high-quality and correct translation. This article may be useful for those conducting research in the fields of art and translation studies, as well as professionals engaged in translation activities.*

Key words: *needlework, fabric, sewing, sewing machine, equipment, term, term, sewing seams.*

Chevarchilik san'ati insoniyat madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, uzoq o'tmishdan boshlab, dunyodagi turli xil xalqlarning hunarmandchilik va o'z davrining moda sohasida rivojlanib kelgan. Ushbu sohada ishlatiladigan terminologiya chevarchilik texnikasi, ularning turi, asbob-uskunalar, tikish va bichish asboblari, matolar va jarayonlarga bog'liq bo'lib, ularning to'g'ri va aniq tarjimasini juda ham muhimdir. Chevarchilik terminlarini tarjima qilish tilshunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiyaning maxsus bir yo'nalishini talab

qiladi. Quyida ushbu mavzu yuzasidan asosiy xususiyatlar, tarjima usullari va muammolar haqida ma'lumot beriladi. Tarjima qilishning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari quyidagicha:

1. Texnik tavsifning zarurati: Chevarchilik terminlari texnik mazmunga ega bo'lib, ularni tarjima qilishda mazmunning aniq va tushunarli bo'lishi juda muhimdir. Masalan, "overlock" atamasi oddiygina qilib "qirralarni tikish mashinasi" deb emas, balki "tikuv choklarining qirrasini birlashtirib mustahkamlovchi texnologiya" deb aniq tushuntirilishi kerak.

2. Madaniyatga bog'liqlik: Ko'p terminlar ma'lum bir madaniyatga (ya'ni ma'lim bir davlarga oid bo'lgan) xos bo'ladi. Masalan, "kimono sleeve" (yapon kimono uslubidagi yeng) yoki "pleated skirt" (burmali yubka) kabi terminlar milliy liboslar bilan bog'liqdir. Tarjima qilish davomida bunday terminlarning asosiy xususiyatlarini saqlab qolish kerak.

3. Universal va lokal atamalar: Ba'zi chevarchilikka oid terminlar dunyo bo'ylab bir xil ma'noda ishlatiladi (masalan, "cotton" – paxta, "silk" - ipak va boshqalar), lekin ayrim atamalar faqat ma'lum hududlarda tushunarli bo'ladi (masalan, "do'ppi tikish" Osiyo davlatlarining ba'zi o'lkalariga xos atama).

Chevarchilik terminlarini tarjima qilish usullariha bir necha turlarga bo'linadi.

1. To'g'ridan-to'g'ri tarjima: Bunda texnik va universal terminlarni so'zma-so'z tarjima qilish mumkin. Masalan, "Seam allowance" → "Tikuv uchun

qoldiriladigan joy", "Zipper" → "Ildirma" va boshqa bir qancha soʻzlar bunga misol boʻlishi mumkin.

2. Transliteratsiya: Baʼzi terminlar boshqa tilda tushunarli boʻlishi uchun asl talaffuziga yaqin holda qabul qilinadi. Yaʼni oʻziga moslab tarjima qilinadi. Misol:

"Overlock" → "Overlok", "Boutique" → "Butik" va boshqalar .

3. Tushuntirish metodi: Bunda termini ishlatilish oʻrniga qarab, tushuntirish orqali maʼnosi beriladi ,yaʼni murakkab terminlarni tarjima qilish uchun tushuntirish usuli qoʻllaniladi. Masalan: "Bias tape" → "Matoning diagonal chizigʻidan kesilgan tasma", "French dart" → "Koʻkrak qismidagi chiroyli yoy shaklidagi bichiq".

4. Muqobil atamalarni izlash: Baʼzan tarjima qilinadigan tilda atamaning aniq ekvivalenti boʻlmaydi. Bunday hollarda mos keladigan muqobil soʻzlar izlanadi. Misol uchun: "Interfacing" → "Matoning qalinligini oshiruvchi material, yoki mustahkamlovchi mato deb yuritiladi.", "Topstitching" → "Bezак choklari yoki yoʻqori chok"(odatda dekorativ maqsadda yoki chokni mustahkamlash uchun ochiq va koʻrinadigan tarzda tikiladigan joy.) .

Chevarchilik terminlarini tarjima qilishdagi baʼzi muammolarga duch kelish mumkin. Baʼzi terminlar faqat maʼlum bir madaniyat yoki texnologiyaga xos boʻlib, ularning aniq bir tarjimasini topish juda qiyin. Bunday vaqtda oʻsha soʻzning ekvivalentini yoki tushuntirish orqali tarjima qilinadi. "Pinafore" atamasi Oʻzbek tilida aniq ekvivalenti boʻlmagani uchun uni tushuntirish orqali tarjima

qilish kerak bo'ladi. Ko'plab terminlarning kelib chiqishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Masalan, "bustle" kabi termin 19-asr modasiga xos bo'lib, bugungi kunda tushunish qiyin bo'lishi mumkin. Ba'zi chevarchilik terminlari bir necha ma'noga ega bo'lishi mumkin, ya'ni ularni ko'p ma'noli atamalar ham deyiladi. Masalan, "notch" so'zi chevarchilikda "bichiqdagi belgilar" ma'nosida ishlatiladi, lekin boshqa kontekstlarda "o'ra" yoki "chuqurcha" ma'nosida keladi. Bundan tashqari ba'zi hollarda mahalliy tillarda texnik terminlarning ekvivalenti yo'q, chunki bu texnologiyalar yoki materiallar hali keng tarqalmagan. Bunday hollarda quyidagi tavsiyalarga amal qilish kerak.

1. Atamalar lug'atini yaratish: Chevarchilikka oid maxsus lug'at yaratish tarjima jarayonini osonlashtiradi va birlikni saqlaydi.
2. Madaniy kontekstga e'tibor berish: Terminlarning ma'nosini o'z holicha saqlab qolish uchun ularni milliy madaniyatga moslashtirish lozim.
3. Professional mutaxassislar bilan ishlash: Tarjima qilish jarayonida chevarchilik sohasida tajribaga ega mutaxassislar bilan maslahatlashish samarali foyda beradi.
4. Vizual yordamdan foydalanish: Chevarchilik terminlarini tushuntirishda illyustratsiya va diagrammalar tarjimaning tushunarli bo'lishiga yordam beradi.

Xulosa

Chevarchilik oid terminlarni tarjima qilish o'ziga xos qiyinchiliklarga ega bo'lsa-da, bu jarayon hunarmandchilik va tikuvchilik madaniyatini saqlash va

global muloqotni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. To'g'ri usullarni qo'llash va madaniyatlararo aloqalarga e'tibor berish orqali sifatli tarjima qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baker, M. (1992). "In Other Words: A Coursebook on Translation". London: Routledge.
2. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1995). "Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation". Amsterdam: John Benjamins.
3. Newmark, P. (1988). "A Textbook of Translation". London: Prentice Hall.
4. M.G.Ergashovna, B.M.Xoliqulovna (2023) "[TIKUVCHILIKKA OID TERMINLARNING SINONMLARINI TAHLIL QILISH](#)"
5. Бердичевский, А. Л. (2001). "Основы переводоведения". Москва: Московский университет.
6. Hatim, B., & Munday, J. (2004). "Translation: An Advanced Resource Book". New York: Routledge.
7. O'zbekiston Respublikasi "Chevarlik va tikuvchilik bo'yicha o'quv materiallari", O'quv-metodik qo'llanma. Toshkent, 2020.
8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. "Tikuvchilik va chevarlik sohasidagi milliy atamalar", Toshkent, 2015.

9. Nord, C. (2005). "Text Analysis in Translation: Theory, Methodology, and Didactic Application of a Model for Translation-Oriented Text Analysis". Amsterdam: Rodopi.
10. Nurboyeva, M. (2023). "Chevarlik san'atida innovatsion texnologiyalar", O'zbekiston hunarmandchilik jurnalidan maqola, Toshkent.